

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI STOMATOLOGIYA FAKULTETI



**Stomatologiya fakulteti dekani,
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.**

**TULANOV DILSHODBEK
SHOMIRZAYEVICH**

E-mail: tulanov_dilshodbek@umail.uz,
tulanov_dilshodbek@mail.ru

Tel: +99891-611-90-07

STOMATOLOGIYA FAKULTETI TARIXI VA FAOLIYATI

1992-yilda Toshkent davlat tibbiyot institutini tamomlagan. 1999-yili Yaroslav tibbiy Medisina akademiyasining Anatomiya kafedrasida, akademik M.Sapin rahbarligida “Postnatal ontogenezda odam bosh miyasi tepa sohasining morfometrik xususiyatlari va 39-maydon sitoarxitektonikasi” nomli nomzodlik dissertasiyasini himoya qildi. 1997-yil Operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedrasiga katta o‘qituvchi lavozimiga, 2005 yili fakultet va gospital jarrohlik kafedrasida, stomatologiya kursiga dotsentlik lavozimiga tayinlandi. 2009-2013 yillarda fakultet va gospital jarrohlik kafedrasida, stomatologiya kursi dotsenti hamda o‘rindoshlik asosida pediatriya fakulteti dekan muovini lavozimlarida ish olib bordi. 2014-2015 yillarda Toshkent davlat stomatologiya instituti Andijon filiali o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 2015-2016 yillarda Toshkent davlat stomatologiya instituti Andijon filiali direktori lavozimida ishladi. 2016-yil dekabr oyidan buyon Andijon davlat tibbiyot instituti stomatologiya fakulteti dekani vazifasida faoliyat yuritmoqda.

STOMATOLOGIYA FAKULTETI TARIXI VA FAOLIYATI

Stomatologiya fakulteti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016yil 21 noyabrdagi PQ-2659-sonli qarori, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2016-yil 22-noyabrdagi 500-son hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2016-yil 23-noyabrdagi 481-sonli buyruqlari asosida Andijon davlat tibbiyot institutida 2016-yil dekabr oyida tashkil qilindi. Bugungi kunda fakultetda 1 nafar dekan, 2 nafar dekan o‘rinbosarlari, 1 nafar dekanat uslubchisi va 1 nafar dekanat ish yurituvchisi faoliyat yuritib kelmoqda.

Stomatologiya fakulteti dekani o`rinbosarlari

Stomatologiya fakulteti ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari



Musayev Nozimjon Ruzibayevich

1-, 2-, 3-kurslarga mas'ul.

e-mail: stomdekanat@umail.uz

Tel: +99891-495-50-44

2009-yili Andijon davlat universitetini tamomlagan. 2009-2011 yillarda Andijon davlat universitetida "Milliy g'oyaning falsafiy masalalari yo'nalishi" bo'yicha magistraturani tamomladi. 2009-2014-yillarda Andijon shahar 22-umumta'lim maktabida o'qituvchi, 2014-2015 yillarda Toshkent davlat stomatologiya instituti Andijon filiali "Ma'naviyat-ma'rifat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo'limi" boshlig'i, 2015-2016-yillarda Toshkent davlat stomatologiya instituti Andijon filiali "Ijtimoiy gumanitar fanlar, tillar, pedagogika va psixologiya" kafedra o'qituvchisi hamda mudiri lavozimida ishlab keldi.

2017-yil yanvar oyidan stomatologiya fakulteti dekan o'rinbosari lavozimida hamda 2018-yil fevral oyidan ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda.



Stomatologiya fakulteti dekan o'rinbosari, fakultet va gospital jarrohlik kafedrasasi assistenti

Kurbanov Xasan Asqar o'g'li

4-, 5-kurslarga mas'ul

E-mail: xasan.kurbanov.88@mail.ru

Tel: +99891-475-01-56,

+99893-441-07-10

2012-yili Andijon davlat tibbiyot institutini tamomlagan. 2015-yil Andijon davlat tibbiyot institutida magistraturani tamomladi. 2016-yili Andijon davlat tibbiyot institutining "Fakultet, gospital jarrohlik, anesteziologiya va reanimatologiya" kafedrasiga assistent lavozimiga tayinlandi. 2016-yil dekabr oyidan boshlab stomatologiya fakultetining dekan o'rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda



Stomatologiya fakulteti dekanat uslubchisi
Xudayberdiyev Akram Akbarovich
E-mail: andijoniy_a@umail.uz,
aandijoniy@mail.ru
Tel: +99891-614-11-68,
+99893-256-67-20

2015-yil Andijon davlat universitetini tamomlagan. 2016-yilda Toshkent davlat stomatologiya instituti Andijon filiali Stomatologiya fakulteti dekanat uslubchisi lavozimida ishlagan. 2016-yil dekabr oyidan buyon Andijon davlat tibbiyot instituti stomatologiya fakulteti dekanat uslubchisi lavozimida ishlab kelmoqda.

Hozirgi kunda fakultet tasarrufida 10 ta kafedra bo'lib, ular asosan, institut o'quv binosi, institut klinikasi, viloyat bolalar stomatologiya poliklinikasi va viloyat stomatologiya poliklinikalari bazasida joylashgan. Stomatologiya fakultetida jami 358 nafar talaba tahsil olmoqda. 114 nafar professor-o'qituvchi ta'lim bermoqda. Ularning 5 nafari fan doktori, professorlar, 12 nafari fan nomzodlari va dotsentlar, 23 nafari katta o'qituvchi, 74 nafari assistent va o'qituvchilardir. Fakultetda professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati 33% dan yuqori bo'lib, respublika tibbiyot institutlari fakultetlari orasida yaxshi ko'rsatgich hisoblanadi. Fakultetda talabalarning samarali ta'lim olishini ta'minlash maqsadida o'quv jarayoniga interaktiv o'qitish usullari, innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning natijasida bir qator talabalarimiz Respublikamiz miqyosida yutuqlarga ega bo'lmoqdalar.

№	F.I.SH.	Kursi	Erishgan yutug`i
1.	Shodmonov Axrorbek	5-kurs	<i>Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasi g`olibi 2017 yil</i>

2017-yilning 1-2-dekabr kunlari Toshken davlat stomatologiya institutida o'tkazilgan "Yosh jarroh-stomatolog" ilmiy-amaliy tanlovida fakultetimiz talabalari 3-o`rin g`olibi bo`ldilar. Joriy yilning 5-6-yanvar kunlari Toshken davlat stomatologiya institutida o'tkazilgan "MEGA Master" ilmiy-amaliy tanlovida stomatologiya fakulteti 3-kurs 301-guruh talabasi Abdumalikov O`rinboy 3-o`rin g`olibi bo`ldi.

Stomatologiya fakulteti kafedralari xodimlari va talabalari ishtirokida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion texnologiyalardan va internet ma'lumotlaridan foydalangan holda bir necha o'nlab ilmiy konferensiyalar o'tkazmoqda.